TURKISTON MADANIY HAYOTINI O'RGANISHDA MUSIQA RISOLALARINING O'RNI

Djurayev Mabruk
O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti
O'rta asrlar bo'limi kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqola musiqa ilmi tarixiga bag'ishlangan bo'lib, unda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan musiqaga oid risolalardan Darvesh Ali Changiyning "Risolayi musiqa" asarining to'rt nusxasi, Najmiddin Kavkabiy Buxoriyning "Risolayi musiqa" asarining qo'lyozma nusxasi, Karomiya qalamiga mansub "Risoloyi Karomiya" asarlari tahlilga tortilgan. Shuningdek, ushbu manbalarga asoslangan holda maqomlarning paydo bo'lish tarixi haqidagi nazariyalar qiyosiy tarzda bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa risolalari, maqom, o'n ikki maqom, sho'ba, musiqa sozlari, Darvesh Ali Changiy, Najmuddin Kavkabiy Buxoriy, yigirma to'rt bahr usul, musiqa vazni, bod, jins, nag'ma.

Annotation: This article is dedicated to the history of music science, it contains four copies of Darvesh Ali Changi's "Treatise on Music" from the music treatises kept at the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of Uzbekistan, the manuscript of "Treatise on Music" by Najmiddin Kavkabi Bukhari copy, the works of "Risoloyi Karomiya" written by Karomiya were analyzed. Also, based on these sources, the theories about the history of status emergence are described in a comparative way.

Key words: Music treatises, status, twelve statuses, branch, music lyrics, Darvesh Ali Changiy, Najmuddin Kavkabiy Bukhariy, twenty-four bahr usul, music weight, bod, jins, nagma.

Madaniyat tarixini tadqiq etishda uning bir qismi hisoblangan musiqa va uning tarixi alohida ahamiyat kasb etadi. Musiqa san'atining azaliy an'analari Sharq xalqlari madaniyatida shakllanib rivoj topganligi hamda butun bashariyatga ijodiy ta'sir etganligi, fanda o'z isbotini topgan[111]. Turon zaminda turli xil sohalarga oid risolalar juda ko'p yozilgan bo'lib, biz ushbu maqolamizda musiqa sohasiga tegishli risolalar haqida[112], yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan musiqa risolalarining bir nechtasini qiyosiy tahlilga tortamiz. Ular musiqa tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar

[111] O'zbekiston musiqasi tarixi. A. Jabborov, S. Begmatov, M. Azamova. Toshkent. 2018. B. 3.
[112] Abu Nasr al-Farobiyning "Kitob al-musiqa", Abu Abdulloh Muhammad al-Xorazmiyning "Mifatix al-ulum", ibn Sinoning "Donishnoma", Abdurahmon Jomiyning "Risolayi musiqiy" (O'zFA ShI. №1331, 438-446 betlar) asarlari shular jumlasidandir.

beruvchi qo'lyozma manbalargina bo'lib qolmasdan, musiqa ilmida shuhrat qozongan shaxslar haqida ham bizga qimmatli tarixiy ma'lumotlar taqdim etadi. Ana shunday manbalardan biri Darvesh Ali Changiy qalamiga mansub "Risolayi musiqiy" asaridir. Ushbu asar XVI-XVII asr 1-choragidagi musiqa san'ati, musiqa hayoti, bastakorlik san'ati, musiqa atamalari, o'n ikki maqom va ijrochilik masalalari haqida bayon etilgan qimmatli manba hisoblanadi. Shuningdek, ushbu risola Turon va Xuroson musiqa arboblarining tarjimai holi, afsonaviy va tarixiy shaxslar haqida ham ma'lumotlar mavjudligi bilan e'tiborni tortadi. Albatta, ushbu musiqa risolalarini ilmiy tadqiq etish olimlar e'tiboridan chetda qolmagan. Dilbar Rashidova[113] hamda I. Rajabov[114]ning tadqiqot mavzusining abekti bo'lgan.

Darvish Ali Changiyning to'liq ismi Darvish Ali ibn Mirzo Ali ibn Abdulali ibn Xoja Abdulloh ibn Xoja Muhammad Marvariddir. U o'z davrining yetuk musiqashunos, bastakor, sozanda, hofiz va shoiri bo'lgan hamda Changiy taxallusi bilan ijod qilgan. Changiyning "Risolayi musiqiy" asari bilan bir qatorda, bizgacha uning g'azal, qasida va ruboiylari ham yetib kelgan.

"Risolayi musiqiy" asarining bir nechta nusxalari mavjud. Xususan, Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti sharq qo'lyozmalari asosiy fondida №468-I, №468-II, №449, №7005 inventar raqamlari ostida, Hamid Sulaymon fondida esa №4546 inventar raqami ostida saqlanib kelmoqda. Darvesh Ali Changiy asarini Jomiy va Kavkabiy risolalari hamda Husayn Oxun, Imom Kuliy Udiy, Zaytun G'ijjakiy kabi musiqa ustozlarining asarlaridan to'plangan ma'lumotlar asosida yozgan, shuningdek, u Amir Xusrav Dehlaviyning musiqiy qarashlarini ham o'z asariga kiritgan. Darveshali Changiy ulug' bastakor sifatida naqsh, amal, savt, peshrav shakllarida kuylar yaratgan. Yoshligidan musiqaga qiziqib, Xojagiy Ja'far Qonuniy[115], ustoz Ali Do'st Noyi[116], Amir Masti Qobuziy, Mavlono Xasan Kavkabiy[117]lardan ta'lim olgan.

№468/I

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti sharq qo'lyozmalari asosiy fondida №468-I inventar raqam ostida saqlanayotgan "Risolayi musiqiy" asari quyidagi 5 bobdan iborat bo'lib, 44 varaqni (1-44) tashkil etadi. Bu haqida muallif asarning o'zida quyidagicha yozadi: - "Bilingki, ushbu risola 5 bobdan tashkil topgandir"[118].

1-bob 12 maqom va 24 sho'ba, 6 ovoza bayonida;

[113] Рашидова Дилбар Абдусаломовна. Дарвиш Али Чанги и его трактат о музыке (Мавераннахр XVI-XVII вв.) диссертация … кандидата искусствоведения: +
17.00.02.- Ташкент, 1981. – 135 с. + Прил. (266 с.: ил.).
[114] И. Р. Ражабов. Трактат о музыке. Ташкент. 2020. 44. с
[115] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. №468. 5^{A}-varaq.
[116] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O'zFA ShI. №468. 5^{A}-varaq.
[117] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O'zFA ShI. №468. 5^{B}-varaq.
[118] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O'zFA ShI. №468-I. 7^{B}-varaq.

2-bob 17 bahr usul va 24 usul bayonida;

3-bob Ish, so’z, amal va 6 ud tovush va naqsh va sa’j hamda zarblar bayonida;

4-bob Musiqa sozlari (tanbur, chang, nay, qonun, ud, barbat, rubob, qobuz, g’ijjak) bayonida;

5-bob Yaxshi hofizlar bayonida.

Ushbu manbaning boshlanish qismida mundarija ham berilgan bo’lib, manbaning kirish qismida muallif o’zi va “Risolayi musiqiy” asarining yozilish sababini izohlab o’tadi. Shu bilan bir qatorda, muallif Abulg’ozi Abdulloh Bahodirxon hamda ushbu risolaning yoza boshlagan tarixi haqida so’z yuritgan: “...ushbu risolaning boshlanish tarixi 980-yilda edi”[119] deb yozadi u. Mavlono Husayn, Xojegi Jafar Qonuniy, Ustoz Ali Do’st Noyi, Mavlono Kavkabiy, Mirzo Ali Changiy, Janob Hofiz Mahmud, Janob Hofiz Mirakiy ibn Majruhiylar kabi musiqa ilmida o’z davrida shuhrat qozongan mashxur shaxslar hamda musiqa so’zining kelib chiqish, ya’ni etimologiyasi haqida ma’lumotlar havola etganlar.

1-bob 12 maqom va 24 sho’ba, 6 ovoza bayonida bo’lib, unda yetti payg’ambar bilan bog’liq dastlabki yetti maqom, Sulton Husayn Mirzo, Mavlono Kavkabiy kabi shaxslar haqida so’z yuritilgan. Xususan, maqom, sho’ba, ovozalar haqida batafsil ma’lumot berib bunday yozadi, - “...bilingki, har bir maqom ikki sho’ba, ikki sho’ba bir ovozadir va ikki ovoza bir rangni (sho’x musiqiy shakl) yuzaga keltiradiki, buni Xoja Abdulqodir topganlar” deya ta’kidlaydi.[120]

Ushbu “Musiqa risolasi”ning birinchi bobida 12 maqom haqida bayon etilgan bo’lib, 7 payg’ambardan qolgan 7 maqom quyidagicha keltirilgan: “Rost” maqomi – Odam alayhissalomdan, “Ushshoq” – Nuh alayhissalomdan, “Navo” – Dovud alayhissalimdan, “Hijoz” – Sulaymon alayhissalomdan, “Iroq” – Ayub alayhissalomdan, “Husayniy” – Yoqub alayhissalomdan va “Rahoviy” – Muhammad sallallohu alayhi vassalamdan meros qolganligi haqidagi rivoyatlar bayon etiladi[121]. Shuningdek, Buzruk maqomi sahobalarning biridan qolgan. Xoja Abdulqodir ibn Abdurahmon Marog’iy 7 payg’ambardan qolgan 7 maqom va sahobalarning biridan qolgan 1 maqomni jamlaydi va boshqa 4 maqomni tartiblab o’n ikki maqom deb nomlagan[122]. Shu asardagi boshqa bir rivoyatda esa bu to’rt maqomni Sulton Uvays Jaloyir topgan, deya bayon etiladi[123].

Muallif bu axborotni yetkazishda Xo’ja Abdulqodir ibn Marog’iy, Xo’ja Safiuddin ibn Abdulmo’min, Sulton Uvays Jaloir kabi musiqa ilmining zabardast vakillari - ulug’ ustozlar fikriga tayanganligini aytib o’tib, ular haqida ham qimmatli ma’lumotlar bayon etadi.

[119] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O’zFA ShI. №468-I. 3^{A}-varaq.
[120] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O’zFA ShI. №468-I. 13^{B}-varaq.
[121] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O’zFA ShI. №468-I. 11^{A}-varaq.
[122] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O’zFA ShI. №468-I.11^{A}-varaq.
[123] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O’zFA ShI. №468-I. 11^{A}-varaq.

2-bob 17 bahr usul va 24 usul bayonida bo'lib, ularning paydo bo'lishi sababi va tarixi haqida bayon etiladi. Xususan, ushbu bobda, dastlab, 12 bahr - usul juda qadimiy bo'lib, Hazrat Mullo Muftiy Sirijning ma'lumotiga asoslanib, bu 12 bahr usulni Jamshiddan qolganligini hamda uning zamonida paydo bo'lganligini aytgan.[124] Shuningdek, Sulton Husayn Mirzo va Alisher Navoiyning musiqa ilmidagi xizmatlari haqida ma'lumot keltirib o'tilgan.

3-bob ish, so'z, amal va 6 ud tovush va naqsh hamda sa'j haqida bo'lib, ularning paydo bo'lishi, qay tarzda yuzaga kelishi va qonun-qoidalari bayon etilgan. Ushbu bobda amal bilan peshrav bir ekanligi va uni jahon ustozlari Sohibqiron Amir Temur Ko'ragon zamonida paydo bo'lganligi[125] haqida ma'lumot keltirilgan. Shuningdek, bu bobda Ustod Shodi, Yusuf Andijoniy, mavlono Boyer Qalandarlarning ham musiqa ilmiga qo'shgan hissasi haqida ham so'z borgan.

4-bob musiqa sozlari bayonida (tanbur, chang, nay, qonun, ud, barbat, rubob, qubuz, g'ijjak) bo'lib, unda musiqa asboblarining tarixi, paydo bo'lish davri, ular nomining etimologiyasi to'g'risidagi ma'lumot va nazariyalar bayon etilgan. Masalan, tanbur so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, "tan" ya'ni dil, "bure" ya'ni xaroshidan, ya'ni tirnash bo'lib, dilni tirnovchi, o'rtovchi ma'nosini ifodalaydi.[126] Bu bobda musiqa sozlaridan tanbur, chang, ud, qonun, barbat, rubob, qubuz, rud, g'ijjak, shammome, kengere (Hindistonda keng tarqalgan musiqa cholg'u asbobi bo'lib, uzun tayoq shaklida, ikki torli va ikki tomonida ikkita kichik kosa bor), jag'one (qoshiqqa o'xshash cholg'u asbobi bo'lib, unga bir nechta qo'ng'iroqlar yopishtirilib, qo'l bilan chayqaladi), setor, qonun, mug'anniy kabi musiqa sozlari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

5-bob yaxshi hofizlar bayonida bo'lib, unda yirik musiqa ustozlari hamda musiqa namoyandalari va ularning qaysi musiqa sozlaridan foydalanishda mohirligi haqida so'z yuritilgan. Masalan, Xoja Navruz, Xoja Mahmud ibn Is'hoq Kotib, Hofiz Do'st Muhammad, Hofiz Boboyi Qonuniy, Hofiz Poyande, Hofiz Shoh Muhammad, Ustoz Husayn Rumiy Udiy, Ustoz Qurbon Ali Noyi, Ustoz O'zbek G'ijjakiy, Ustoz Muhib Ali Rabboyi, Hofiz Mahmud Qonuniy, Nadim Shirin, Xoja Mulla Muhammad, Hofiz Varizo kabi yirik musiqa olimlari haqida qimmatli tarixiy ma'lumotlar mavjud.

Ushbu nusxa bugungi kunda O'zFA ShI sharq qo'lyozmalari asosiy fondida saqlanadi. Mazkur nusxaning hajmi 14,5 x 23,5 sm bo'lib, unda "Risolayi musiqiy"dan tashqari yana 4 ta asar joylashtirilgan bo'lib, ularning uchtasi musiqaga oid hisoblanadi. Bu manbaning umumiy holati yaxshi, matnlar qora siyohda, bob va shaxslar nomlari qizil siyohda yozilgan.

Hamid Sulaymon fondi №4546

[124] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O'zFA ShI. №468-I.17[A]-varaq.
[125] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O'zFA ShI. №468-I. 24[A]-varaq.
[126] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O'zFA ShI. №468-I. 26[B]-varaq.

Darvesh Ali Changiyning “Risola-ye elmi-ye musiqiy” (**ریساله علمی موسیقی**) deb nomlangan asarining O’zFA ShI Hamid Sulaymon fondi №4546 inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxasi hamda №468/I inventar raqam ostida saqlanayotgan “Risola-ye musiqiy” asari bilan ichki mazmuni deyarli bir xil bo’lib, faqatgina boblarida biroz farq qiladi, ya’ni “Risola-ye elmi-ye musiqiy” asari quyidagi 6 fasl (bob)dan iborat:

1. “Risolayi musiqiy” asarining boshlanishi va qo’shiq so’zining bayonida.
2. 12 maqom va 24 sho’ba, 6 ovoza hamda uch rang bayonida;
3. 17 bahr usul va 24 usul bayonida;
4. Ish, so’z, amal va 6 ud tovush va naqsh hamda sa’j bayonida;
5. Musiqa sozlari (tanbur, chang, nay, qonun, ud, barbat, rubob, qubuz, g’ichchak...) bayonida;
6. Yaxshi hofizlar bayonida.

Ushbu nusxaning boshi va oxiri saqlanib qolmagan bo’lib, Hofiz Mahmud, Hofiz Mirakiy ibn Majruh haqidagi ma’lumotlar bilan boshlanadi.

Mazkur nusxa oldingi nusxadan farqli o’laroq, yetti payg’ambardan qolgan yetti maqom haqidagi ma’lumotlar ikkinchi bobda bayon etilgan.

Beshinchi bobning yarmi, ya’ni ko’ngere sozidan keyingi musiqa sozlari bayoni hamda oxirgi bobi saqlanmagan.

Ushbu manba 58 varaqdan iborat, matnlari, asosan, qora, shaxs va bob nomlari qizil hamda ko’k rangda yozilgan.

№7005/III

№7005-III inventar raqamli nusxasi nodir qo’lyozma hisoblanadi va u 35 varaqdan iborat. (176 B betdan – 212 B betgacha). Ushbu asarda muallif asarning 12 maqom (bob) ekanligi haqida quyidagicha bayon qiladi: - “Bilingki ushbu risola 12 maqom (bob)dan tashkil topgan”[127]:

1-bob. Payg’ambar alayhissalomning yaxshi ovoz va go’zal ohanglarni tinglash joizligiga dalolat qiluvchi hadisalar bayonida;

2-bob. Musiqa ilmi va ohang kalomi hamda musiqa vazni bayonida;

3-bob. O’n ikki maqom va yigirma to’rt sho’ba, olti ovoza hamda uch rang (sho’x musiqiy shakl) bayonida;

4-bob. Bahr usul va 24 usul ilmida;

5-bob. Ish, so’z, amal (forscha she’rlar bilan ijro etiladigan qo’shiq), peshrav, ohang va shakl ilmida;

6-bob. Musiqa sozlari bayonida;

7-bob. Bu yo’nalishdan (musiqadan) xabardor bo’lgan podshohlar bayonida.

[127] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O’zFA ShI. №7005-III. 180[B]-varaq.

8-bob. Bu yo'nalishdan (musiqadan) bahramand bo'lgan olimlar va fozillar bayonida.

9-bob. Musiqa ilmida ko'plab asarlari mavjud shoir va fozillar zikri bayonida[128];

10-bob. Ulkan saodatlar bayonida;

11-bob. Xush ovozli hofizlar bayonida;

12-bob. Ustozlar bayonida.[129]

Changiyning ushbu asari nusxasidagi boblarda musiqa ilmi va namoyandalari haqida quyidagilar bayon etilgan:

1-maqom (bob). Payg'ambar alayhissalomning yaxshi ovoz va go'zal ohanglarni tinglash joizligiga dalolat qiluvchi hodisalar bayoni keltirilgan. Nabiy (s.a.v.) dedi: -,,Chiroyli ovoz Qur'onning ziynatidir"[130]. Quron o'qishda yaxshi ovozga ega bo'lish sifati haqida Abu Bakr (r.a), Oisha (r.a)dan rivoyatlar mavjud.

2-maqom (bob). Musiqa ilmi va ohang kalomi hamda musiqa vazni bayonida bo'lib, unda musiqa so'zining etimologiyasi haqida bir qancha faraz va nazariyalar keltirilgan. Shunindek, musiqa vazni va ohang kalomi bayon etilgan.

3-maqom (bob). 12 maqom bayonida bo'lib, unda ham maqomlar haqida bayon etilgan. "Bilingki, Xoja Abdulqodir ibn Abdurrahmon Marog'iy, Xoja Sayfuddin ibn Abdulmo'min, va Sulton Uvays Jaloyir aytganlarki, avval 7 payg'ambardan qolgan 7 maqom bo'lgan.[131] Ushbu asarda payg'ambarlar bilan bog'liq bo'lgan yetti maqomning paydo bo'lishi, ular to'g'risidagi rivoyatlar bilan keltirilgan. Ayni shu ma'lumot Darvish Ali Changiyning "Risolayi musiqiy" nomli risolasining O'zFA ShI Hamid Sulaymon fondi №4546 inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxasining 2-bobida keltiriladi. Shuningdek, bu bobda Mavlono Sharofiddin Muhammad Seyistoniy, Kamol Kermoniy hamda Hasan Noyining maqom haqidagi nazariyalari, 12 maqomning Aflotun zamonida paydo bo'lgani haqida, uning yuzaga kelishida Muso alayhissalom bilan bog'liq rivoyatlar ham mavjud.

4-maqomda (bob) bahr usulning paydo bo'lishi haqida Hazrat Mavlono Mug'anniy Siroj, Xoja Sayfuddin Abdulmo'minning bahr usullarining paydo bo'lishi haqidagi ma'lumotlari berilgan. Changiy Xoja Sayfuddin Abdulmo'minning risolasiga tayanib 6 bahr usuldan birini Mirzo Ulug'bek Ko'ragon, yana birini esa Abulg'ozi Sulton Husayn Mirzo ibn Boyqaro paydo qilgani to'g'risida ma'lumot bergan.[132] Qolaversa, Alisher Navoiyning musiqa ilmi rivojiga qo'shgan hissasini tilga olib o'tadi. Shunindek, she'r, aruz va aruz vaznlari hamda musiqadagi aruzni o'rni bayon etilgan. Yana, shu bilan birgalikda, bu bobda bo'd (notalar orasidagi masofa, bo'shliq),

[128] Ushbu nusxaning mundarijasi quyida tahlilga tortiladigan 449 inventor raqamli nusxaning mundarijasi bilan bir xil bo'lib, unda 6 bob saqlanib qolgan bo'lsa, 449 inventor raqamli nusxada 10 bob saqlanib qolgan. Biz ushbu nusxada yozilmagan mundarijadagi 9-bobning nomini 449 inventor raqam ostida saqlanayotgan nusxadan aniqlab yozdik.
[129] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O'zFA ShI. №7005-III. 181[A]-varaq.
[130] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O'zFA ShI. №7005-III. 181[A]-varaq.
[131] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O'zFA ShI. №7005-III. 185[A]-varaq.
[132] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O'zFA ShI. №7005-III. 196[A]-varaq.

jins hamda nag’ma (ohang, qo’shiq, navo, tarona) haqida Sayfuddin Abdulmo’minning ma’lumotlariga tayanib so’z yuritgan.

5-maqom (bob). Ayni bobda ish, so’z, amal (forscha she’rlar bilan ijro etiladigan qo’shiq), peshrav, ohang va shakl ilmida bo’lib, ular qaysi zamonda kim tomonidan paydo qilingani borasida ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, amal haqida gap borganda, uning 3 ga bo’linishi, ya’ni amal-e guliston, amal-e bo’ston va amal-e xoriston kabi shakllanishi Xoja Abdulqodirga asoslanib bayon etgan. Shu bilan birga, peshrav (forscha-oldinda yuruvchi. muqaddima yoki zarbli qo’shiq maqomiga ega bo’lgan she’rsiz ballada turi) haqida to’xtalib, uni jahon ustozlari Sohibqiron Amir Temur Ko’ragon zamonida paydo bo’lgan deb yozadi[133]. Changiy ushbu bobni yozishda mavlono Banoyi, janob ustoz Shodiy, Xoja Yusuflarning ma’lumotlariga asoslangan.

6-maqom (bob) musiqa sozlari bayonida bo’lib, unda tanbur, chang, nay, ud, qubuz, qonun, barbat, musiqor, rubob, chag’one, beruh afzo, kengere (hindlar paydo qilgan) va arg’anun (rum hukamolari paydo qilgan), samtur, mug’anniy, setor musiqa sozlari kelib chiqishi haqida bayon etilgan. Masalan, tanbur so’zi yunoncha so’z bo’lib, tan, ya’ni dil (yurak), bure ya’ni xaroshidan (tirnash) so’zlaridan olingan[134]. “Qonun” sozi Aflotundan[135], “tor” esa Jamshiddan qolgani[136] haqida yozilgan. Bu nusxa barbat va rubob sozlari bilan yakunlangan bo’lib, qolgan olti maqomi (bob) mavjud emas.

Ushbu manbaning matnlari qora siyohda bo’lib, nastaliq yozuvida fors tilida yozilgan. Ba’zi betlarda joy yetishmasligi sababli kitobning yonlariga ham vertikal va gorizontal usulda ma’lumotlar yozilgan, bu esa o’z navbatida manbashunosga manbaning o’qilishida biroz qiyinchilik tug’diradi. Shuningdek, bob va shaxs nomlari ajratib, alohida rang bilan yozilmagan. So’z borgan nusxa ham to’liq emas. O’lchami 15 x 21 sm.

№ 449

№449 inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxa nodir qo’lyozma hisoblanib,,,Tuhfat as-surur” (تحفة السرور) deb nomlangan va bu manba qolgan nusxalarga nisbatan to’liq va mukammalroq. Sariq muqova bilan qoplangan va 121 varaqdan iborat. Unda ham 12 maqom haqida so’z boradi. Bu borada muallifning o’zi quyidagilarni bayon etadi: “Bilingki, ushbu risola 12 maqomdan tashkil topgan”.[137] Ular quyidagilar:

1-bob. Payg’ambar alayhissalomning yaxshi ovoz va go’zal ohanglarni tinglash joizligiga dalolat qiluvchi hodisalar bayonida;

2-bob. Musiqa ilmi va ohang kalomi hamda musiqa vazni bayonida;

[133] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O’zFA ShI. №7005-III. 203^{B}-varaq.
[134] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O’zFA ShI. №7005-III. 206^{B}-varaq.
[135] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O’zFA ShI. №7005-III. 208^{A}-varaq.
[136] Risolayi musiqiy. Darvesh Ali Changiy. O’zFA ShI. №7005-III. 208^{B}-varaq.
[137] Tuhfat as-surur. Darvesh Ali Changiy. O’zFA ShI. №449. 6^{A}-varaq.

3-bob. O’n ikki maqom va yigirma to’rt sho’ba, olti ovoza hamda uch rang (sho’x musiqiy shakl) bayonida;

4-bob. Bahr usul va 24 usul ilmida[138];

5-bob. Ish, so’z, amal (forscha she’rlar bilan ijro etiladigan qo’shiq), peshrav, ohang va shakl ilmida;

6-bob. Musiqa sozlari bayonida;

7-bob. Bu yo’nalishdan (musiqadan) xabardor bo’lgan podshohlar bayonida;

8-bob. Bu yo’nalishdan bahramand bo’lgan olimlar va fozillar bayonida;

9-bob Musiqa ilmida asarlari mavjud shoir va fozillar zikri bayonida;

10-bob. Hurmat bilan ulkan saodatlar bayonida.

11-bob. Xush ovozli hofizlar bayonida;

12-bob. Ustozlar bayonida.

Changiyning risolasining mazkur nusxasi №7005-III inventar raqamli nusxasi bilan bir xil bo’lganligi sababli, biz dastlabki olti bob haqida to’xtalib o’tmadik va 7-bobdan boshlab, ular haqida qisqacha ma’lumot bayon etishni lozim topdik. Aslida bu bob mundarijada 7-bob deb berilgan, lekin kitobning ichida esa 6-bob bayonida deb keltirilgan. Ushbu bob musiqa ilmida o’zlaridan kitoblar qoldirgan podshohlar, amirlar, buyuklar, ulamolar va fuzalolar zikrida bo’lib, unda Dilorom va Bahrom Go’r, Umar ibn Xattob (r.a), Shoh Xusrav Parviz, Sozanda va navozanda janob ustoz Rudakiy, janob xoja Abdulqodir Ayyoniy (30b bet), Xoja Abdulloh Loriy, Hazrat xoja Xusrav Dehlaviy, Firdavsiy Tusiy, Mavlono Mirak Changiy Buxoriy, Mavlono Qosim Rabboniy, Shayx Baxlul Dono, Shayx Shams Rabboniy, Hazrat Darvesh Ahmad Qonuniy, Ustoz Sulton Ahmad Devona, Mavlono Devona Hasaniy, Sulton Muhammad Udiy Samarqandiy, Hazrat Shayx Abdulloh Muborak, Pahlavon Kotibiy Nishopuriy, Mavlono Ubayd Zakoniy, mavlono sohib Balxiy al-Mashhur Tarifiy, Xoja Sayfuddin Abdulmo’min kabilar haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

7-bob shoirlar, ulamolar, fozillar, buyuklar (akobirlar) bayonida bo’lib, unda, xususan, Mavlono Sharofiddin Yazdiy va uning qasidasi hamda g’azali, Amir Shohiy va uning g’azali, Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy va uning g’azali, Xoja Abdulloh ibn Muhammad Marvorid, Mir Alisher Navoiy, Mavlono Banoyiy va uning g’azali, Akram Xodiy, Xoja Yusuf Andijoniy, Sulton Pahlavon Abu Said Rumiy, G’ulom Ali Shunqor, janob Ali Korhol, Mavlono Zaynulobidin Rumiy, Janob Alijon G’ichchakiy, janob Shoh Muhammad Dilduz, Mavlono Najmiddin Buxoriy, Mavlono Nuriddin tahallusi Mavlono Hiloliy (uning xuni uchun Mavlono Kavkabiyning Mashhadda o’ldirilgani ham ushbu bobda bayon etilgan), Hasanxo’ja Nisoriy va uning Abdullaxonga bag’ishlangan qasidasi, Mavlono Hasan Kavkabiy, Mavlono Xoja Muhammad ibn

[138] Ushbu bobning nomi qolgan boblarga o’xshab qizil siyoh bilan ajratib yozilmagan. Biz buni №7005/III inventar raqamli manbadan aniqlab yozdik.

Abulhasan Kavkabiy, Mavlono Rizoy Samarqandiy, Mavlono Boqi Jarroh kabilar ijodi va ulardan namunalar bilan qimmatli ma’lumotlar bayon etilgan.

8-bob bu yo’nalishdan bahramand bo’lgan olimlar va fozillar bayonida bo’lib, unda Ustoz Zaytun G’ichchakiy, Oyobxon Ahmad Giloniy, Xoja Mahmud ibn Is’hoq Shahoniy, Sayyid Ahmad ibn Mahtar Mirakiy, Mavlono Axiy Husraviy, ustoz Jahon Darvesh, Hofiz Mirak ibn Majruhiy Buxoriy, Mavlono Boqi Varziy, mavlono Husayn Oxun al-Mashhur Bakir, Mavlono Abulhay, Mavlono Muhammad Husayn Mir Tabib, Mavlono Qosim Kaloh, Xoja Xatib, Mir Qabuziy, Janob Yusuf Dutoriy Husraviy, Mavlono Mushfiqiy Mardiy, Qosim Arsalon, Maxzumzoda Xorazmiy, Mir Ali Akbar Samarqandiy, Mavlono Aminiy (Buxoriy) Kitobdor va uning Mavlono Kavkabiyga javob qasidasi, janob Xojegi Ja’far Samarqand Qonuniylar va ular ijodi, musiqa ilmidagi xizmatlari bayon etilgan.

9-bob bu fanda (musiqa ilmida) ko’plab asarlari mavjud shoir va fozillar zikri bayonida bo’lib (101b-betdan), xususan, unda Hofiz Tanish, Mir Xatib, Xoja Abdulkarim Qozi, Mavlono Sabuhiy Kobuliy, Janob Mavlono Yobande Tabib, Mavlono Sayyidiy, Mavlono Xom Nasafiy, Mirzo Hoshim ibn Boqi Divon, Hofiz Boboyi Qonuniy, Janob Hofiz Turviy Qonuniy, Janob Mirzo Qo’ng’irot Qubuziy, Mavlono Mo’min Kamonkiy, Mavlono Boqi Shohidiy, Hofiz Poyande Qubuziy, Mavlono Arshiylar haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

10-bob poytaxt Hirotdagi o’z davrining yetuk ustozlari bayonida bo’lib, unda, xususan, Mavlono Mir Ali al-Kotib, Mavlono Qosim Qonuniy, Ustoz Sulton Muhammad Tanburiy, Janon Hofiz Jalojil Husraviy, Hofiz Sobir, Ustoz Shamsiddin Xusraviy, ustoz Husayn Udiy, Hofiz Qonuniy Mardoniy, ustoz Ubaydulla Noyi, Amir Masti Qubuziy, Janob Shayx Ahmad Qubuziylar haqida ma’lumotlar berilgan. Qolgan qismi yo’qolgan. Kitob shu yerda tugatilgan.

Zikri borgan nusxaning oxirgi ikki bobi mavjud emas. Shuningdek, ushbu nusxaning mundarijasi ba’zi boblar bilan mazmunan mutanosib emas. Masalan, mundarijada 6-bob musiqa sozlari bayonida deb berilgan, lekin 6-bob matnida ushbu fanda (musiqa ilmida) shuhrat qozongan podshohlar, amirlar, buyuklar, ulamolar va fuzalolar zikri bayon etilgan.

№468/II

Galdagi “Musiqa risolasi” №468/II inventar raqamli manbaning 46^b betidan 54^b betgacha bo’lib, 8 varaqni tashkil etadi. Ushbu manba kirish qismdan so’ng ikkinchi maqom (bob)dan boshlanadi, birinchi maqom yo’q. Asar Payg’ambar alayhissalomning yaxshi ovoz va go’zal ohanglarni tinglash joizligiga dalolat qiluvchi hadislari bayoni bilan boshlangan. Nabiy (s.a.v.) dedi: -,,Chiroyli ovoz Qur’onning ziynatidir”[139]. Ikkinchi maqom,,Musiqa ilmi bayonida” deb nomlangan bo’lib, ushbu

[139] Risolayi musiqiy. O’zFA SHI. №468-II. 46^b-varaq.

qismda “musiqa” so’zining etimalogiyasi (yunoncha,,mu” va,,siqiy”) haqidagi bir nechta qarash bayon etilgan[140]. Uchinchi maqom,,O’n ikki maqom bayonida” deyilib, bu qismda Xoja Abdulqodir Abdulrahmon Marog’iy, Xoja Sayfuddin Abdulmo’min va Sulton Uvays Jaloyerlarning ma’lumotiga tayanib yetti payg’ambardan qolgan yetti maqom haqida ma’lumot va nazariyalar, shuningdek, musiqa sozlari bayon etilgan. Rost, iroq, rumoviy maqomlarining nomlanish tarixi, maqomning dastlab 7 ta bo’lgani, ammo Mavlono Said 12 maqomni qurganligi, u podshoh Sheruya ibn Hurmuz ibn No’shiravonning xizmatida bo’lib, Mavlono Yazidning shogirdi ekanligi haqida so’z borgan.[141] Shuningdek, ushbu manbaga oid boshqa qarash va nazariyalarda esa maqomlarning qolgan qismini boshqa ustozlar topgan deb bayon etilgan[142]. Shu bilan birgalikda ushbu nusxaning oxirida cholg’u asboblari va ularning paydo bo’lishi tarixi haqida qisqa-qisqa to’xtalib o’tilgan.

Ushbu manbaning matnlari qora siyohda qizil ramka ichiga maqom, shaxs va musiqa sozlari qizil siyohda nastaliq yozuvida fors tilida yozilgan. Manbaning o’lchami 15,5 x 23,5 sm.

№468/III

Do’vre-ye So’frechi[143] laqabli muallif qalamiga mansub “Risolayi Karomiya”[144] deb nomlangan ushbu asar ham musiqa haqidadir. Ushbu “Karomiya musiqa risolasi” safaviylar davriga oid risola bo‘lib, Eron an’anaviy musiqasi haqida yozilgan qimmatli asarlardan biri hisoblanadi. O’zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida ushbu “Karomiya risolasi”ning faqatgina 3 varag’i saqlangan, xolos. Ya’ni №468/III inventar raqamli manbaning 56^{b} varag’idan 59^{b} varag’igacha joylashgan. Lekin ushbu manbaning Eron va boshqa mamlakatlar kutubxonasida ko’plab nusxalari mavjud. Xususan, uning 26 nusxasi ma’lum qilingan bo’lib, ulardan to’rt nusxasi Fransiya milliy kutubxonasi, Londondagi Kembrij universiteti kutubxonasida, Tokiyodagi Tokiyo universiteti kutubxonasida, Islomoboddagi Ganjbaxsh kutubxonasida, qolgan barcha nusxalar Eron mamlakatidagi kutubxonalarda, jumladan, ikki nusxasi Quddus Rizaviy viloyati kutubxonasida, to’rt nusxasi Malak kutubxonasida, uch nusxasi Milliy kutubxonada, besh nusxasi Majlis kutubxonasida, ikki nusxasi Shahid Mo’tahhari kutubxonasida hamda olti nusxasi Tehron universiteti markaziy kutubxonasida saqlanadi.[145] Ushbu risola 3 bobdan iborat:

1. O’n ikki maqom bayonida;
2. Sho’ba bayonida;

[140] Risolayi musiqiy. O’zFA SHI. №468-II. 48^{a}-varaq.
[141] Risolayi musiqiy. O’zFA SHI. №468-II. 51^{a}-varaq.
[142] Risolayi musiqiy. O’zFA SHI. №468-II. 51^{a}-varaq.
[143] Ali Qulixon Shomluning ko’zga ko’ringan sozandalaridan biri va uning dasturxonchisi lovozimida ishlagan.
[144] Ushbu asar Safaviylar davrining birinchi yarmidagi sanoqli musiqa asarlaridan biridir. U Hirotda qisman Xuroson musiqasi tasirida yozilgani taxmin qilinadi.
[145] سهند سلطاندوست و دکتر مهدی کشاورز افشار. معرفی و تحلیل رساله کرامیه و لزوم تصحیح انتقادی آن. (علمی – پژوهشی). نشریه نثر پژوهی ادب فارسی دانشکده ادبیات و علوم انسانی دانشگاه شهید باهنر کرمان. سال 24، دوره جدید، شماره 49، بهار و تابستان 1400. ص. 76.

3. Ovozlar bayonida.

Dastlabki bob 12 maqom bayonida bo'lib, unda maqomlarning paydo bo'lishi bo'yicha ixtiloflar ko'pligi haqida aytiladi.[146] Shuningdek, bu qismda Muso alayhissalom va Jabroil alayhissalom bilan bog'liq maqomning paydo bo'lishi haqida rivoyat keltirilgan. Ushbu risolada ham 7 payg'ambardan qolgan 7 maqom haqida so'z boradi. Ya'ni:

Rost – Ibrohim Halilulloh, Hijoz – Hazrat Ismoil, Rahoviy – Hazrat Yaqub, Ushshoq – Yusuf, Iroq – Hazrat Yunis, Husayniy – Dovud alayhissalom bilan bog'liq deb ko'rsatilgan. Bu jihatdan ushbu risola Darvesh Ali Changiyning "Musiqa risolasi"da bayon etilgan maqom haqidagi ma'lumoti bilan mutanosib kelmaydi.

Mazkur manbadagi maqom bilan bog'liq yana bir rivoyatda o'n ikki maqomning paydo bo'lishi Aflotun bilan bog'langan. Shuningdek, ushbu musiqa risolasida "Musiqa qonunlaridan ba'zilari va usul bayonida" nomli qism ham mavjud.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan ushbu manbaning matnlari qora sihoyda, ba'zi muhim so'zlar esa qizil siyohda yozilgan. Manbaning o'lchami 15,5 x 23,5 sm.

№468/IV

Mavlono Kavkabiy qalamiga mansub bo'lgan ushbu "Risolayi musiqiy" asari Shayboniy Abdullaxon davrida yozilgan. Muallifning Buxoroda 1473-yil Mavlono Gavhariy oilasida tavallud topgani aytiladi. U Buxoroda ulg'ayib, o'sha davr madaniyat markazi bo'lmish Hirot shahrining madrasalaridan birida tahsil olgan. Kavkabiy Ubaydullaxon saroyida xizmat qilgan. Ubaydullaxon Husayn Boyqaroga o'xshab, adabiyot va nafis san'atlar homiysi, ayni chog'da, she'riyat hamda musiqiy ilmning bilimdoni bo'lib, Kavkabiyni o'z saroyining ko'rki tariqasida e'zozlagan. U Ubaydullaxon saroyining faxri bo'lib, Eronning Mashhad shahriga ziyorat qilganida Ubaydullaxon shoir Xiloliyni qatl qilgani uchun qasos sifatida shoh tomonidan 1532-yili qatl etilgan[147].

Kavkabiy bir qancha musiqiy risolalar muallifi bo'lgan. Bulardan bizgacha saqlanib kelganlari orasidan birinchisi nasrda, ikkinchisi nazmda yozilgan,,Musiqa risolasi" va "O'n ikki maqom haqida" asarlarini tilga olish mumkin. U musiqashunos, shoir, bastakor bo'lib, musiqa ilmi va amaliyotining turli masalalariga doir ilmiy risolalar yozgan. Hasanxoja Nisoriy va Kavkabiyning jiyani Darvishali Changiy ma'lumotiga ko'ra, Kavkabiy kulliyot, qavl, amal, savt, naqsh, rexta va boshqa shakllarda musiqa asarlari yaratib, maqomlarga mos g'azallar ham bitgan. Umuman olganda, uning asarlari musiqa ilmining rivojlanishida alohida bir davrni tashkil etadi. Keyingi vaqtlarda Turon, Eron va Hindistonda ijod qilgan ko'pchilik musiqashunoslar o'zlarini Kavkabiy maktabining davomchilari deb biladilar.

[146] Risolayi Karomiya. O'zFA SHI. №468-III. 57[a]-varaq.
[147] Tuhfat as-surur. Darvish Ali Changiy. O'zFA ShI. №449. 73[A]-varaq.

Uning “Risolayi musiqiy” asari fors tilida XVI asrda Buxoroda yozilgan. Kavkabiy ushbu asarini yozishda Forobiy, Omuliy, Abdulqodir Marog’iy va Xo’ja Yusuf Burhon Andijoniy asarlariga tayangan holda, O’rta Osiyoda birinchilardan bo’lib, o’z nazariy qarashlarini zamonasining musiqa amaliyotiga yaqinlashtirishga intilgan. O’z navbatida ushbu asardan Darvesh Ali Changiy o’zining “Risolayi musiqiy” asarini yozishda manba sifatida ham foydalangan.

Kavkabiyning ushbu risolasining kirish qismida Shayboniy Ubaydullaxon tarifida masnaviy keltirilgan:

حامی ملت پناه ملک دین
جانشین رحمه للعالمین
مظهر لطف خداوند جهانی
خسرو وغازی عبید الله خان[148].

Tarjimasi:
Millat homiysi, din mulkining panohi,
Rahmat ul-olaminning o’rinbosari,
Jahon Xudosi lutfining ko’rinishi,
Xusrav-o’ G’oziy Ubaydullaxon.

“Risolayi musiqiy” asarida ilmi musiqiy, o’n ikki maqom tizimiga oid nazariy tushunchalar berib, turli zarb-usullarning nomini keltirib ta’riflagan, kuyning amaliyotidagi xillari haqida ma’lumot bergan. U o’z risolasida turli musiqa asboblari, kuylar va maqomlarning paydo bo’lishi haqida afsonalar, g’azallar keltirib, umuman, qadimgi Sharq musiqiy estetikasi an’analarini davom ettirgan. Ushbu asar quyidagi 12 bobdan iborat:

1. Musiqa ilmi sharafida;
2. Musiqa va uning mavzusi ta’yini bayonida;
3. Nag’ma tarifida;
4. Bo’d (notalar orasidagi bo’shliq) va jins tarifida;
5. Asliy pardalar bayonida;
6. Ovoz va sho’balar nisbatida;
7. Murakkabot bayonida;
8. No’qre tarifida;
9. Musiqa vazni (ritm) ta’rifida;
10. Maqom turlari;
11. Tasniflashning qo’shimcha bo’yicha bo’linishi;
12. Usul jihatidan bir-biridan ajralib turadigan qismlar haqida.

[148] Risolayi musiqiy. Kavkabiy. O’zFA SHI. №468-IV. 63[b] bet.

Ushbu risolaning nusxalari Sankt-Peterburg, Dushanbe hamda Toshkentdagi Sharqshunoslik institutlarida saqlanadi.

Hozirda ushbu manba O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti sharq qo'lyozmalari asosiy fondida №468/IV inventar raqami ostida saqlanmoqda. Ushbu manbaning asosiy matnlari qora siyohda, bob nomlari esa qizil siyohda bo'lib, ko'k rangli to'rt burchak ramka ichiga solib nastaliqda yozilgan va 10 varaqdan iborat. Manba qalin, chiroyli naqsh ishlangan muqova bilan qoplangan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqining musiqa san'atiga qiziqish qadimdan mavjud bo'lgan. Ko'p asrlik rivojlanish yo'lini bosib o'tgan ushbu san'at qadimiy va o'ziga xos an'anaga ega bo'lgan. Ko'plab musiqachilar, sozanda va xonandalar musiqa asarlarini qoyilmaqom tarzda chuqur, mazmunli, ajoyib hamda yoqimli ovozlari bilan ijro etib, xalq cholg'u asboblarini chalishda mahorat ko'rsatganlar, shu bilan bir qatorda musiqaga oid qimmatli asarlar yaratganlar. XVI-XVII asrlarda yaratilib, biz tahlilga tortgan musiqa risolalari orqali bu davrdagi musiqaga bo'lgan munosabat, musiqa ilmining ravnaq topganligi, maqomlarning rivojlanganligi, shuningdek, ushbu sohaga diniy omillarning esa to'siq bo'lmaganligini ko'rishimiz mumkin. Maqolada keltirilgan musiqaga oid asarlar o'rta asrlarda Xuroson, Turon, Hindiston va Sharq mintaqasining boshqa markazlarida ilmi musiqiy rivoj topganligidan, qadimiy hamda o'ziga xos an'analarga ega ekanligidan darak beradi. Darvesh Ali Changiyning risolasi bular orasida alohida ajralib turadi. Musiqaga oid bu asarlar matnini qiyosiy o'rganish ilmi musiqiyning umummanzarasi, shu davrda mazkur ilm bilan shug'illangan musiqashunos-u shoirlar haqida ma'lumot berishi bilan ham qimmatli hisoblanadi. Qolaversa, musiqa ilmiga doir bu asarlar "Shashmaqom" hamda "Duvozdahmaqom"ni ilmiy o'rganishda muhim ahamiyatga molikdir. Ayni paytda, musiqa ilmiga doir asarlar nafaqat zikri borgan mintaqalarda, balki dunyo musiqashunosligi, ajdodlarimizning estetik didi yuzasidan zarur xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ulardan ijodiy foydalanish bugungi avlodning musiqa tarixi va nazariyasini mukammal o'zlashtirishga ko'mak beradi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yxati:

1. O'zbekiston musiqasi tarixi. A. Jabborov, S. Begmatov, M. Azamova. Toshkent. 2018. B. 3.

2. Рашидова Дилбар Абдусаломовна. Дарвиш Али Чанги и его трактат о музыке (Мавераннахр XVI-XVII вв.) диссертация … кандидата искусствоведения :17.00.02.- Ташкент, 1981. – 135 с. + Прил. (266 с.: ил.).

3. И. Р. Ражабов. Трактат о музыке. Ташкент. 2020. 44. С

4. رىسالە موسيقى (Risolayi musiqiy). Darvesh Ali Changiy. O'zFA ShI asosiy fondi. №468. 5^{A} varaq.

5. ریساله علمی موسیقی (Risolayi elmi-ye musiqiy). Darvesh Ali Changiy. O’zFA ShI Hamid Sulaymon fondi. №4546.

6. ریساله موسیقی (Risolayi musiqiy). Darvesh Ali Changiy. O’zFA ShI asosiy fondi. №7005-III. 180[B] varaq.

7. تخفة السرور (Tuhfat al-surur). Darvesh Ali Changiy. O’zFA ShI asosiy fondi. №449.

8. ریساله کرامیه (Risolayi Karomiya). Karomiya. O’zFA ShI asosiy fondi. №468-III.

9. ریساله موسیقی (Risolayi musiqiy). Kavkabiy. O’zFA ShI asosiy fondi. №468-IV. 63[B] varaq.

10. سهند سلطاندوست و دکتر مهدی کشاورز افشار. معرفی و تحلیل رساله کرامیه و لزوم تصحیح انتقادی آن. (علمی – پژوهشی). نشریه نثر پژوهی ادب فارسی دانشکده ادبیات و علوم انسانی دانشگاه شهید باهنر کرمان. سال 24، دوره جدید، شماره 49، بهار و تابستان 1400. ص. 76.